

SHAXS XUSUSIYATLARNI IFODALOVCHI FRAZEOLOGIZMLARNING BADIY
TARJIMADA IFODALANISHI**Mohigul Uraimova**Farg'ona davlat universiteti, Tayanch doktorant.
mohigulqobulovna@gmail.com, Tel: +998901639616
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15004127>

Annotatsiya: Mazkur maqola frazeologizmlarni badiiy tarjimada ifodalanishi masalasiga bag'ishlangan bo'lib, unda frazeologizmlarning tarjima jarayonidagi ahamiyati haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: frazeologiya, frazeologizm, tarjima, analogik, lingvokulturologiya.

Аннотация. В данной статье рассматривается вопрос репрезентации фразеологизмов в художественном переводе, а также рассматривается значение фразеологизмов в процессе перевода.

Ключевые слова: фразеология, фразеологизм, перевод, аналоговый, лингвокультурология.

Abstract. This article is devoted to the issue of the representation of phraseologisms in literary translation, and discusses the importance of phraseologisms in the translation process.

Keywords: phraseology, phraseologism, translation, analog, linguoculturology.

Tarjima – bu ikki xalq, madaniyat orasidagi ma'naviy ko'prikka o'xshaydi. Zero, u ikki madaniy sohillarini tutashtiruvchi doimiy rishta vazifasini bajaradi. Azaldan ilm-fan rivojida tarjima muhim ahamiyatga ega hisoblangan. Shu sababli, arab xalifaligi davrida ham yunon olimlarining ko'plab asarlari buyuk mutafakkir olimlar tomonidan arab tiliga tarjima qilingan. Tarjimon G'.Salomov ta'kidlaganidek: *"Xalqlar hech qachon bir-birlaridan mutlaq ajralgan holda yashashlari mumkin bo'lmagani singari, ularning moddiy va madaniy yodgorliklari, adabiyoti va san'ati ham hech qachon faqat bir milliy chegara doirasida "sof holda" saqlanib qolmagan"*¹.

Tarjimon badiiy matnlardagi frazeologizmlarni tarjima qilish jarayonida bir qancha murakkab qiyinchiliklarga duch keladi. Ulardan eng asosiysi bu bir tildagi frazeologizmning ekvivalenti ikkinchi tilda mavjud emasligidir. Ushbu holatni tilshunos Mona Beykr *"bir necha tillarda ma'lum bir ma'noni ifodalashda turli xil til vositalaridan foydalaniladi"*² – deya izohlaydi. Ya'ni, bir tilda so'z birikmasi orqali ifodalangan ma'no boshqa bir tilda so'z yoki ibora bilan ifodalanishi mumkin. Shuningdek, frazeologik birliklarning *"tarjimonning soxta do'stlari"*³ deb atalishi ham bejiz emas. Zero, frazeologik birliklarning asosiy qismi to'lig'icha yoki qisman ko'chma ma'nolarda qo'llanadi. Masalan, inglizcha *"a heart of oak"* idiomasini oladigan bo'lsak, ushbu idioma o'zbek tilida *"bag'ritoshlik, bemehrlik"*ni ifodalaydi degan noto'g'ri tasavvur tug'dirishi mumkin. Aslida esa ushbu frazeologizm ingliz tilida shaxslardagi mardlik va bahodirlikni ifodalash uchun qo'llaniladi. *"A wise man of Gotham"* idiomasini

¹ Salomov, G'. Tarjima nazariyasi asoslari. 1983, Toshkent, -b 36.

² Baker, M. In Other Words. London: Routledge, 1992.

³ Subbotina, V. Challenges of translating phraseological units. Procedia: Social & Behavioral Sciences, 70, 1487–1492.
<https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2013.01.216>

soʻzma-soʻz tarjima qilganimizda, *“Gotemning dono odami”* tarzida boʻladi. Aslida esa, ushbu frazeologizm kinoya maʼnosida ishlatilib, shaxslardagi ahmoqlik, aqlsizlik xususiyatini ifodalash uchun ishlatiladi. *“Big-headed”* idiomasi esa baʼzida *“aqli toʻla, aqli”* sifatida boshqa til egalarida xato tasavvur tugʻdiradi, aslida, ushbu frazeologizm insonlardagi *“takabburlik, kibr”*ni taʼriflashda ishlatiladi. Tarjima jarayonida bu kabi misollarning bir qanchasiga duch kelishimiz mumkin. Bu asosan, ikki xalq madaniyatidagi olamni idrok qilishdagi nomuvofiqliklar (kognitiv dissonans) tufayli yuz beradi. Shu sababli, asliyat tilidagi idiomalar tarjima oddiy soʻzlar orqali ifodalanishi yoki aksincha, asliyatdagi oddiy soʻz va soʻz birikmalar tarjima tilida frazeologik birliklar shaklida kelishi ham mumkin.

Tarjima jarayonida *“tarjima qilinishi mushkul til birliklari”*⁴ orasida birinchi oʻrinda frazeologizmlar turadi.

Frazeologik birliklarni tarjima qilishda asosan, uch usuldan foydalanish tavsiya etiladi:

- “1. Butunlay muvofiqlik;
2. Qisman muvofiqlik;
3. Muvofiqlikning yoʻqligi”⁵.

1. Butunlay muvofiqlik – asliyatdagi frazeologik birliklarning tarjima tilida turgʻun ekvivalentining mavjudligi. Ushbu guruhga shaxs xususiyatlarini ifodalovchi frazeologizmlardan quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

1. Thick-skinned – terisi qalin
2. Thin-skinned – terisi yupqa

2. Qisman muvofiqlik – asliyatdagi frazeologik birliklarning tarjima tilida toʻla muqobil ekvivalentining yoʻqligi. Ushbu guruhga shaxs xususiyatlarini ifodalovchi frazeologizmlardan quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

1. As gentle as a dove – musichadek beozor
2. An eagle eye – qirgʻiy koʻz

3. Muvofiqlikning yoʻqligi – asliyatdagi frazeologik birliklarning tarjima tilida ekvivalentlarining umuman mavjud emasligi. Ushbu frazeologik birliklarni tarjima qilishda quyidagi usullardan foydalaniladi:

- Soʻzma-soʻz tarjima: as poor as a church mouse – cherkov sichqonidek kambagʻal.
- Analogik tarjima: as artful as a wagonload of monkeys – yerga ura koʻkka sapchiydigan.
- Izohli tarjima.
- Bir-biriga yaqin boʻlmagan tillardagi badiiy asar tarjimasida asosan, uchinchi guruhdagi usullardan foydalaniladi. Buni quyidagi berilgan misollardan ham koʻrishimiz mumkin.

Ishimizning ushbu bobida ingliz tilidagi badiiy asarlarda qoʻllanilgan shaxs xususiyatlarini ifodalovchi frazeologizmlarning oʻzbek tilidagi tarjimalarini tahlil qilamiz. Tahlil obyekti sifatida J.Londonning *“Martin Eden”* asarining asliyatdagi matni va oʻzbekchadagi tarjimasini oldik. Ushbu badiiy asardagi ingliz tilidan oʻzbek tiliga tarjima qilingan frazeologizmlarning ifodalagan maʼnosi tahlil qilindi.

Misol: “Cheese-Face wanted to demur, – Martin could see that – but Cheese-Face’s old perilous pride was touched before the two gangs”. (J.London, Martin Eden. -P 134).

⁴Влахов С., Флорин С. Непереваемое в переводе. Москва, Международные отношения, 1980. -С 179.

⁵Sirojiddinov Sh., Odilova G. Badiiy tarjima asoslari. Monografiya. Toshkent, 2011. -B 101.

Raqib taraddudlanib qoldi – Martin buni payqadi, lekin Moy Qovoq sirkasi suv ko'tarmaydigan yigit edi, shuning uchun shuncha tomoshabin oldida sharmanda bo'lishni istamasdi. (Q.Mirmuhammedov tarjimasi, Martin Iden. -B 160).

Ushbu misolda Moy Qovoqning *“old perilous pride”* (eski xavfli mag'rurligi) birikmasi tarjimon Q.Mirmuhammedov tomonidan o'zbek tilida *“sirkasi suv ko'tarmaydigan”* iborasi orqali ifodalangan va bu orqali gapdagi ekspressivlik darajasi yanada oshgan.

Misol: “Yes, I – no invalid,” said he. When it comes – to hard-pan, I can digest rusty iron (J.London, Martin Eden, 1960,28).

– Да, я вообще здоров как бык, – сказал он. Ежеле понадобится могу переварить ржавое железо (Ж.Лондон, Мартин Иден, - с 15).

– Ha, utuman, men otdek sog'lom – dedi u. Lozim bo'lsa zanglagan temirni ham hazm qilib yuboraman. (Q.Mirmuhammedov tarjimasi, Martin Iden, 15-bet).

Asarning asliyatida *“I am not handicapped”* va *“I am not invalid”* variantlari keltirilgan. Rus tilida ushbu birikma *“здорови как бык”* (*healthy as an ox*) frazeologik birligi orqali ifodalangan bo'lsa, o'zbek tilida esa *“otdek sog'lom”* iborasidan foydalanilgan.

Misol: But while he believed Arthur's description, and appeared a gentle lamb rather than a willed man he was racing his brains for a course of action (J.London. Martin Eden, p 33).

Lekin Martin ayni damda Artur tasvirlagan yovvoyi odamga qaraganda ko'proq yuvosh qo'zichoqni eslatib o'tirarkan, o'zimni qanday tutishim kerak, degan savol ustida hamon bosh qotirardi. (Q.Muhammedov tarjimasi, Martin Iden, -b 27).

Ushbu misoldagi *“a gentle lamb”* frazeologizmi *“birovga ozor berolmaydigan, yuvosh”* odamlarni ta'riflashda ishlatiladi. Tarjimon Q.Muhammedov ushbu frazeologik birlikni *“yuvosh qo'zichoq”* tarzida so'zma-so'z tarjima qilgan. Aslida ushbu birikma *“qo'y og'zidan cho'p olmagan”* tarzida tarjima qilinganda, yanada to'g'riroq bo'lar edi.

Bilamizki, tarjima jarayonida badiiy asar aks ettrigan madaniyatni to'laligicha tarjima qilinayotgan tilga olib o'tish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, ba'zan xalqning madaniy ruhi aks etgan birliklar bir tildan ikkinchi tilga so'zma-so'z tarjima qilinadi. Lekin shunday holatlar bo'ladiki, ikkinchi tilda ham aynan o'sha iboraning muqobil variant mavjud bo'ladi va undan foydalanilganda, muallif ifodalamoqchi bo'lgan ma'no ham aynan aks etadi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, tarjima jarayonida asliyatda ifodalangan ma'noni kitobxonga yetkazib berishi uchun tarjimon asliyat tilidagi frazeologizmlarni bilishi katta ahamiyatga ega. Zero, ularni so'zma-so'z o'girish orqali ma'no o'zgarib ketishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:

1. Baker M. In Other Words. London: Routledge, 1992.
2. London J. Martin Eden. London, 1960.
3. Salomov G'. Tarjima nazariyasi asoslari. 1983, Toshkent.
4. Sirojiddinov Sh., Odilova G. Badiiy tarjima asoslari. Monografiya. Toshkent, 2011.
5. Subbotina V. Challenges of translating phraseological units. Procedia: Social & Behavioral Sciences, 70, 1487–1492.<https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2013.01.216>
6. Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. Москва, Международные отношения, 1980.